TILNING IJTIMOIY HODISA EKANLIGI HAQIDAGI NAZARIY QARASHLARNING IDODALANISH XYSUSIYATLARI

Amirkulova Zebuniso Mustafakulovna,
filologiya fanlari bo'yicha PhD,
Termiz iqtisodiyot va servis universteti dotsenti.

Annotasiya: Ushbu maqolada yozuv darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan samarali usullar hamda tilning inson hayotidagi ro‘li to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: ijtimoiy, lingvistika, tilshunoslik, bares, ustkurma.

O‘zbekiston mustaqillikga erishgach ham iqtisodiy-siyosiy ham ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda yuksak yutuqlarga erishdi. Mamlakat taraqqiyoti, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, ijtimoiy farovonlik tomon bosilgan har bir qadam inson manfaatlari va xalq turmush tarzining yaxshilanishi va rivojlantirilishi bilan bog‘liq. O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, Ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e‘tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratish tabiiy.

Til eng buyuk milliy qadriyatdir. Til nafaqat muloqot vosita, balki tafakkur mahsuli sifatida yangilik yaratish asosi hamdir. Til jamiyatda muloqot funksiyasi bilan bir qatorda hissiy ta‘sir, to‘plash vazifasini ham bajaradi. Globallashuv jarayonida tilning ijtimoiy funksiyasi kengayib bormoqda. Bu fikrning dalili sifatida bit nechta tajribalarni misol keltirishimiz mumkin. Chet ellik ko‘pgina olimlar bu hodisaga ijobiy emas balki salbiy qarashlar bilan qaraganlar. Bola bir oz o‘sib ulg‘aygandan so‘ng o‘zini atrofidagi hodisa va jarayonlarga qarab o‘zi eshitgan ovozlarni qaytaradi va keyinchalik o‘zini muhitidagi tilga moslashib so‘zlarni ayta boshlaydi. Bu jarayonni isbotlash maqsadida olimlar bir tajriba o‘tkazishadi ya‘ni ma‘lum bir davlatda dunyoga kelgan bolani boshqa davlatda voyaga yetkazishadi. U tug‘ilgan ona yurtining tilida emas, balki ulg‘aygan muhitning tilida so‘zlashadi. Ya‘ni unga ijtimoiy muhit katta ta‘sir ko‘rsatadi. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati bo‘lishi shart. Chunki, til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilishi va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan.Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o‘laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo‘ladi, bir jamiyat yo‘q bo‘lishi bilan til ham asta-sekin iste‘moldan chiqa boshlaydi va davrlar o‘tishi bilan o‘lik tilga aylanadi. Lotin, sug‘d, qadimiy Xorazm tillari bunga misol. Biroq tilning paydo bo‘lishi taraqqiy etishi va iste‘moldan chiqishi biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir . Shuning uchun til qununlari, uning taraqqiy yo‘llari jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalq tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganilgandagina masalani to‘g‘ri hal qilish mumkin. Til insonlar o‘rtasida axborot almashish, his-tuyg‘ularni ifodalash va shaxsning o‘z tabiatini namoyon qilish vositasidir. Til lingvistikaning turli aspektlarida o‘rganiladi va ularning barchasida asosiy vosita vazifasini bajaradi. Ma‘lumki har bir inson o‘zi yashab turgan muhitda, jamiyatda ulg‘ayadi, tarbiya topadi. Albatta, har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til ma‘naviy komillik, milliy o‘zlik tarbiyasining asosiy o‘chog‘i Bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, oiladir. Abdurauf Fitrat „Rahbai najot‘‘ asarida shunday yozadi:„Suv qaysi rangdagi idishda bo‘lsa, o‘sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo‘lsa, o‘sha muhitning har qanday odat va axloqini tilini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko‘proq yaxshi va yomon ahvolni o‘z uylaridan, ko‘chadagi o‘rtoqlaridan, maktabdagi o‘quvchilardan qabul qiladilar. „Tilning paydo bo‘lishi, uning takomillashib borishi, odamzodning bunday ne’matga noil bo‘lishiday murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli to‘liq anglagunga qadar ko‘p zamonlar o‘tgan. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson qancha umr ko‘rmasin, u gapira olmaydi. Chunki til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tmaydi, ya‘ni uni irsiyatga bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Irsiyat qonuniga binoan, bolaning biologik, antropologik xususiyatlari avloddan avlodga o‘tadi, lekin o‘zbek oilasida tug‘ilgan bola faqat o‘zbek tilida gapiradi, deyish noto‘g‘ridir. U qaysi tilda gapira boshlashi qaysi oila, qaysi ijtimoiy muhitda tarbiyalanishiga bog‘liq. Til jamiyat mahsuli sifatida shakllangan murakkab, ijtimoiy-biologik, psixik hodisa ekan, insonning olamni anglashi, dunyoni bilish sezgilari jamlangan a‘zolarning nutq apparati sifatida takomillashuvi muayyan tarixiy davr hamda tizim talablari asosida amalga oshgan . Til kishilik jamiyati mahsulidir. Tilning ijtimoiy tabiatini talqin qilishda jahon tilshunosligi dialektir taraqqiyot prinsiplariga asoslanadi. Xususan, tilning jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunish tilshunoslik faniga qo‘shilgan eng buyuk hissalardan biridir. Tilning asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan bo‘lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Adabiyotlar:

1. .X.Jamolxonov.,,Hozirgi o‘zbek adabiy tili‘‘ T-2004 -206-b
2. Otauli: Haddi Iskandariy (tarixiy hikoya).Chop etilgan.11.04.2012.Muallif Ziyouz.uz
3.R.Sayfullayeva.,Hozirgi o‘zbek adabiy tili‘‘T-2009 .415-b
4. A.Bahriyev,N.Bahriyeva.Yangi pedagogik texnalogiyalar orqali o‘qitishda ichki motivatsiyani shakllantirish xalq ta‘limi jurnali.2006- 304 b.